

IV USTOZLAR MILLIY FORUMI

**MAVZU: INKLYUZIV TA'LIMDA
O'QITISHNING INNOVATSION
METODLARI**

Fasilitatorlar:

G.ALIMOVA, S.MO'MINOV



Inklyuziv ta'lim tushunchasi



Ta'rifi va maqsadi

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari

Inklyuziv ta'limning afzalliklari

INKLYUZIV TA'LIMDA INNOVATSION METODLARNI QO'LLASHDAN MAQSADI

Imkoniyatlar tengligini
ta'minlash

Faol va interaktiv
o'rganish usullarini
qo'llash

Moslashtirilgan o'quv
muhitini yaratish

INKLYUZIV TA'LIMDA INNOVATSION METODLAR



Differensial

O'quv jarayonini moslashtirish



STEAM

Fanlararo integrasiya qilish



Koop-koop

Birgalikda o'rganish



Gamifikatsiya

O'yinni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish



Multisensorli

Eshitish, ko'rish, taktil, harakat vositalari orqali o'rgatish



Kooperativ

Juftlikda yoki guruhda ishlash

- bolalarni xilma-xilligini, ularning qiziqish-xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'qitishning innovatsion texnologiyasini tashkil etish;
- bolaga o'quv faoliyatida o'zini topishiga va uning atrofidagi jamiyat haqida turli xil bilimlarni olishiga yordam berish;
- individual qobiliyatlarini rivojlantirish;
- mustaqil bilim olish qobiliyatini shakllantirish;
- boshqa (sog'lom) bolalar bilan o'zaro munosabatlarning samarali usullarini topish;
- individual ta'lim dasturini tuzishda ishtirok etish.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida:

UJRO.GOV.UZ tizimimi orqali ЭРПИ билан тасдиқланган, Хужжат коди: WCS1638282

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2025-yil " 1 " -aprel 04-39-1463-son

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga

Nusxasi: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markaziga (ma'lumot uchun)

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markaziga (Sizing 2025-yil 26-martdagi 01-02/5-143-sonli xatiningizga)

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan **"Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha yo'riqnoma"**, **"Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturi maketi"** hamda **"Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual ta'lim dasturi namunasi"** loyihalaridan inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflari tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi maxsus pedagoglar ish faoliyati davomida foydalanishlari tavsiya etiladi.

Ilova: ___ varaq.

Vazir o'rinbosari

F.Boqiyev

Ijrochi: U.Xudayberdiyev
Telefon: (55) 503-74-00 (4090)

info@uzedu.uz

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

www.uzedu.uz

uzedu

uzedu

uzedu

uzedu

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI
100011, Toshkent shahri, Sharqiyonulor tashqi, Navoiy ko'chasi, 30-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL CENTER FOR THE DEVELOPMENT OF EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
30, Navoiy street, Sharqiyonulor district, Toshkent, 100011
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2025-y. " 08 " may
№ 01-02/3-231

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligiga

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonida ta'lim jarayoni ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son qaroriga muvofiq, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markaziga (keyingi o'rinda-Markaz) maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari hamda o'quv kurslarini moddiy-texnik jihozlash bo'yicha talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari davlat maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini Markaz talablariga muvofiq jihozlash bo'yicha zarur choralar ko'rish vazifasi belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Markaz tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan takliflar inobatga olingan holda **"Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixolog xizmat xonalari hamda inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida maxsus pedagog xizmat xonalarini jihozlashga qo'yiladigan talablar"** ishlab chiqilib, Markazning 2025-yil 5-maydagi 19-sonli buyrug'i bilan tasdiqlandi.

Yuqoridagilarga asosan, Siz rahbarlik qilayotgan hududda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi psixolog va maxsus pedagog xizmat xonalarini jihozlashda Markaz tomonidan tasdiqlangan Talablarni inobatga olishingizni so'raymiz.

Ilova: 18 v.

Direktor v.v.b.

Y.Risyukova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI IJTIMOIY HIMOYA MILLIY AGENTLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING QARORI

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning tasdiqlash haqida

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni takomillashtirish, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bilan maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari (keyingi o'rindlarda – ta'lim muassasalari) o'rtasida tajriba almashish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **qaror qiladi:**

1. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktori vazifasini bajaruvchi

Toshkent sh.,
2025-yil 23-iyun
4-918-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori

Toshkent sh.,
2025-yil 23-iyun
4-918-son

Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri


Toshkent sh.,
2025-yil 23-iyun
35-818-son

Y.Risyukova

M.Oloyorov

X.Umarova


- Bolaning asl-holatini kuzatish
- Pedagogik jamoasi bilan bola haqida fikr almashish
- Uzoq va qisqa muddatli maqsadlarni belgilash
- O'qitish usullarini aniqlash
- Rejani amalga oshirish
- Rejani baholash va qayta ko'rib chiqish




Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kuzatish natijasi	
<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning kuchli tomonlari</u>	<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning zaif tomonlari</u>
•	•



vaqtni to'g'ri taqsimlash;
reja asosida harakatlanish;
jadvalga bilan ishlash;
tassavur qilish;
rag'batlantirish.



Uydan maktabga – maktabdan uyga 1 kunlik reja



Ertalab turib
yotog'ingizni
tartibga
keltiring

Kiyimlaringizni
almashtiring

Nonushta
qiling

Sumkaga o'quv
qurollaringizni
joylang

Maktabga yo'l
oling

Darsda ishtirok
eting

O'qib,
yozib,
o'rganing



Uyga
qayting

Maktab
formangizni
almashtiring

Uyga
berilgan
vazifalarni
bajaring

O'yin
vaqti

Ovqat yeng

Ertak
tomosha
qiling

Dam oling

MA'QUL VA NOMA'QUL HARAKATLAR



Xulosa



Bilimlarni yangilash

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha bilimlaringizni doimiy ravishda oshirish, yangi tadqiqotlar va seminarlarda ishtirok etish.



Ijodiy yondashuv

Har bir bolaning alohida ehtiyojlariga mos ravishda ijodiy va moslashuvchan bo'lish.



Hamkorlikni kengaytirish

Pedagog kadrlar, ota-onalar va soha mutaxassislar bilan samarali hamkorlikni mustahkamlash.



Empatiya va qo'llab-quvvatlash

Bolalarga nisbatan empatiya bilan yondashish va ularga o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishda ko'maklashish.

Savollar bo'lsa marhamat...

Ishtirokingiz uchun rahmat!

